

## DORIVOR ZAYTUN (OLEA EUROPAEA)DARAXTNING XUSUSIYATLARI

**Normurodova Zebiniso Boboqulovna**

Surxondaryo viloyati Angor tuman

13-umumta'lim maktabining Biologiya

fani o'qituvchisi. Telefon:+998975303088

**Normurodova Bibijamol Qudratovna**

Surxondaryo viloyati Angor tuman

13-umumta'lim maktabining Kimyo

fani o'qituvchisi. Telefon:+998975509445

### **Annotation:**

This article discusses the rational use of nature and its plants.

### **Keywords:**

Olive, "Tree of Life"

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Tabiat va uning o'simliklaridan oqilona foydalanish haqida so'z yuritiladi.

### **Kalit so'zlar:**

Zaytun, „Hayot daraxti”

Zaytun zaytundoshlar oilasi(Oleaceae)ga ,zaytun(olea) turkumiga ,madaniy zaytun (Olea europaea) turiga mansub subtropik daraxt hisoblanadi.Zaytundoshlar oilasiga 600 ga yaqin daraxt va butalar kiritilgan bo'lib subtropik va mo'tadil mintaqalarda tarqalgan. Ulardan birgina Yevropa zaytuni (Olea europaea) xo'jalik ahamiyatiga ega.Zaytun daraxti asosan O'rta yer dengizi atrofida tarqalgan.Vatani Suriya bo'lib,u „Hayot daraxti” deb nom olgan. Hozirda Yevropa,Amerika,Osiyo,Afrikada ekiladi.Ushbu bizning yurtimizda ham ekilib, iqlimlashtirilmoqda.

Surxondaryo viloyatida zaytun daraxtini ochiq dalalarda va issiqxonalarda yetishtirish mumkin. Biz tadqiqot jarayonida qalamchalaridan ko'paytirilgan zaytun tez hosilga kirishini o'rgandik.Zaytun o'simligini qalamchalardan mart oyida ekish ma'qul vaqt hisoblanadi.Surxondaryo sharoitida zaytun o'simligini o'stirishning qulaylik tomoni bu quyoshni juda yaxshi ko'radi.Shu bois Surxondaryoda katta maydonlarda zaytunzor tashkil etish mumkin. Keyingi yillardagi tadqiqodlar zaytun mevasi nafaqat yoqimli taom balki yaxshi sog'liq manbai ham ekanligi aniqlandi.Zaytun mevasi va moyidagi ayrim yog' kislotalari mono - to'yinmagan hisoblanadi.Mono-to'yinmagan yog' kislotalari tarkibida xolesterin bo'lmaydi.Shu sababli zaytun moyi xolestirin miqdorini oshirmaydi,balki uni nazorat ostida saqlab turadi.

Sizlarga aytmoqchi bo'lgan zaytun daraxtining foydali jihatlari juda ham ko'p.Zaytun moyi bugungi kunda keng tarqalayotgan havfli bo'lgan ko'krak saratoni kasalligining oldini oladi .Zaytun moyini xomilador ayollar ichib yurishsa,xomilasining sog'lom tug'ilishiga hamda nerv sistemasi yaxshi rivojlanishiga foya keltiradi. Zaytun moyining hamma turi badanni quvvatlri qiluvchi,harakatga moyil qiluvchi va haroratni so'ndiruvchi hamdir.Zaytun moyining eskisini ko'z hiralashishiga qarshi surtma qilinadi.Zaytun moyi oshqozon ichak kasalliklarida foydalanilsa ularga beshikast shifo beradi.Bugungi kunda keng uchrayotgan o't pufagi va buyraklarning tosh kasalliklarida ham foya berib,toshlarni eritib, parchalash xususiyatiga ega.Zaytun moyi soch to'kilishining ham oldini oladi.Zaytun moyi Zaytun daraxtining mevasidan olinadi.Ushbu ajoyib o'simlik bizning yurtimizda tabiiy holda uchramaydi.Zaytun daraxtining balandligi 4-12 metr ,shoh-shabbasi tarqaladigan, barglari mayda, yaxlit ,yaltiroq, poyada qarama-qarshi joylashgan, mevasi rezavor,danakli ,to'q binafsha rangda.Mevasi etida 80% ,mag'zida 30%

moy ,oqsil ,vitamin C va karotin uchraydi. Zaytun moyi oziq -ovqat ,tibbiyot va texnika uchun ham qo'llaniladi.Zaytun daraxti yog'ochidan sifatli mebellar tayyorlashda ishlatiladi.

### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Xolida Mirfayoz qizi Maxkamova. Botanika.T. «O'qituvchi» 1995 yil.
2. V. Karimov, A. Shomahmudov «Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar. » T. «Ibn Sino» nomidagi 1995 yil
3. X.X. Xolmatov , Z.X. Habibov O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari. Toshkent, «Meditina» , 1976 yil